

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi javobdagi gapda imloviy xatolikka yo‘l qo‘yilmagan?

- A) Shoshmang, hozir sizni suvdan o‘tkazib qo‘yaman.
- B) Manzilga yetkach sen bilan alohida gaplashaman.
- C) Oradan qancha zamonlar o‘tdi, uning nomini faxr bilan tilga olayapmiz.
- D) Gapi to‘g‘rida, u tengi bolalar maktabga borishadi.

2. toza shimni

Mazkur so‘z birikmasidagi tobe so‘zga zid ma‘no bildiruvchi so‘zning shakldoshi qaysi gapda qatnashgan?

- A) Sen birovning xonasiga doimo taqillatib kir.
- B) Otxona ichidan iflos kurak va supurgi ko‘tarib Jo‘ra chiqib qoldi.
- C) Bugungi majlisga kelmading-da, seni toza maqtashdi.
- D) Suvni yer shimib oldi.

3. Qaysi javobdagi gaplar juftligida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar soni har ikkala so‘zda bir xil?

- A) Tantanada o‘nlab yurtdoshlarimiz ishtirok etishdi. U ba‘zan oylab qorasini ko‘rsatmas edi.
- B) Bu topshiriqni qanday bajargani esidan chiqmaydi. Onaxon bu xabarni aytgani kelgan edi.
- C) Biz mustaqil yurt farzandimiz. Bizning maktabimiz yaqinda ta‘mirlandi.
- D) Ko‘zingizni yashnatadi bu bog‘lar. Chin inson birovga yaxshilik ko‘zlar.

4. Gap bo‘laklari quyidagi shartli belgilar tartibida joylashgan gapni aniqlang.

_____ - - - - - _____

- A) Yormat Yo‘lchi bilan yonma-yon ketayotgan edi.
- B) Polatjon bugun hammadan oldin uyg‘ondi.
- C) Olma ko‘chatlarini yaxshi parvarish qildik.
- D) O‘quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi.

5. Qaysi javobda fe‘lning o‘tgan zamon shakli kelasi zamon ma‘nosida qo‘llangan?

- A) Xo‘sh, endi nima qildim? Kim mening dardimga sherik bo‘ladi?
- B) Bugun men yaqin qarindoshlarimni yo‘qlab keldim.
- C) Xo‘p, mayli, hozir boshingni qotirmay, hali kelarman.
- D) Men ertaga ketyapman, do‘stim. Biznikiga kechqurun kelasanmi?

6. *Olloh nazari tushgan jannatmakon ona zaminimiz dovrug‘i mustaqillik sharofati ila bugungi kunda butun dunyoga yoyilmoqda.* Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘z qaysi ma‘noda qo‘llangan?

- A) kishilar qulog‘iga yetib bormoq, shu tarzda ma‘lum va mashhur bo‘lmoq
- B) taxlangan, o‘ralgan narsani ochmoq
- C) tevarak-atrofga taralmoq, anqimoq
- D) kichik-kichik guruhlariga bo‘linib ketmoq

7. *Voqealar deb aytgan edi Mirzo Ulug‘bek samo gumbazining harakatiga qarab emas odamlarning intilishi bilan ro‘y beradi* Mazkur ko‘chirma gapli qo‘shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to‘g‘ri berilgan?

- A) «-, -,».
- B) «-, -,».
- C) «-, -».
- D) :«-, -,».

8. a) Yanguli ("Hellados"); b) Shum bola ("Shum bola"); c) Qosim ("Fanorchi ota"); d) Hoshimjon ("Sariq devni minib") kabi adabiy qahramonlar haqida berilgan quyidagi ma'lumotlar qaysi javobda to'g'ri moslab ko'rsatilgan?

1. *U yerga ursa ko'kka sapchiydigan o'n to'rt yoshli bolakay edi. Kunlarning birida u onasini xafa qilib qo'yganidan xijolat bo'lib, qolaversa, biror oy mehnat qilib pul topib kelish ilinjida yo'lga tushadi va yarim yildan ortiq vaqt davomida... bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechiradi.*

2. *...qorachadan kelgan, ko'zlari yirik-yirik, doim chaqnab turadi, uning burni angishvonaga o'xshaydi, gapirganda tutilib-tutilib gapiradi. U o'ziga va eng yaqin do'stiga yettita fandan a'lo baholar qo'yib, chorak tugamagan bo'lsa ham, chorak baholarini ham chiqarib qo'ygan edi.*

3. *U chaqaloqligidayoq onasidan yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo'q davlati bir parcha tomorqasi, bittagina sigiri va eshagi edi. U hech qayerda o'qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo'shnilarga sut-qatiq tarqatar edi...*

4. *U bolalar ichida eng qo'rqmaydigani va eng battoli edi. U har kuni bir zararkunandalikni o'ylab topar edi. Unga bir safar Ahmad ismli bola qarshi chiqib, zararkunandalik qilganni jazolash uchun ushlab berishini aytadi.*

- A) a - 3; b - 1; c - 4; d - 2
- B) a - 4; b - 2; c - 1; d - 3
- C) a - 3; b - 2; c - 1; d - 4
- D) a - 1; b - 3; c - 4; d - 2

9. *"...uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. ...ning harakati yengil va lafzi tez edi. ... ko'zi o'ynab, har sekuntda o'n yoqqa alanglar edi. ... bolalik chog'idayoq uy ichi va qo'ni-qo'shni unga «shaddod» deb ism berganlar, chunki kim bo'lsa-bo'lsin, aytganini qildirmay qo'ymas, agar birorta ish uning tilagiga teskari ketsa, shovqin-suronni ... boshig'a kiyib olar edi. Shuning uchun ...ning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapga og'iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi".*

Mazkur parchada "O'tkan kunlar" romanidagi qaysi qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Saodat
- B) Zaynab
- C) Kumush
- D) Xushro'y

10. *Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin, G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.*

Qaysi javobda mazkur misralarda qo'llangan badiiy san'at turlari berilgan?

- A) tashxis, husni ta'lil
- B) tarse', tanosub
- C) tashxis, talmih,
- D) tardi aks, husni ta'lil

Ona tili va adabiyot fanidan ayrim test topshiriqlarini bajarish yuzasidan tavsiyalar

1-test topshirig'i

Qaysi javobdagi gapda imloviy xatolikka yo'l qo'yilmagan?

- A) Shoshmang, hozir sizni suvdan o'tkazib qo'yaman.
- B) Manzilga yetkach sen bilan alohida gaplashaman.
- C) Oradan qancha zamonlar o'tdi, uning nomini faxr bilan tilga olayapmiz.
- D) Gapi to'g'rida, u tengi bolalar maktabga borishadi.

1-test topshirig'i tahlili

To'g'ri javobni topish.

Testning to'g'ri javobini topish uchun talab etiladigan bilim, ko'nikma va malakalar.

Birinchidan, asos va qo'shimchalar imlosi va yuklamalar imlosi yuzasidan nazariy ma'lumotlarni bilish va ularni farqlashga oid ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etiladi.

Ikkinchidan, imloviy xatolikka yo'l qo'yilmagan gapni topish talab etiladi.

To'g'ri javob. A) *Shoshmang, hozir sizni suvdan o'tkazib qo'yaman.*

Manba: Ona tili, 6-sinf uchun darslik, «Tasvir» nashriyot uyi, Toshkent –2017, 67,92- betlar.

Ona tili, 7-sinf uchun darslik, «Ma'naviyat» nashriyot uyi, Toshkent –2017, 116- bet.

2-test topshirig'i

toza shimni

Mazkur so'z birikmasidagi tobe so'zga zid ma'no bildiruvchi so'zning shakldoshi qaysi gapda qatnashgan?

- A) Sen birovning xonasiga doimo taqillatib kir.
- B) Otxona ichidan iflos kurak va supurgi ko'tarib Jo'ra chiqib qoldi.
- C) Bugungi majlisga kelmadig-da, seni toza maqtashdi.
- D) Suvni yer shimib oldi.

2-test topshirig'i tahlili

To'g'ri javobni topish.

Testning to'g'ri javobini topish uchun talab etiladigan bilim, ko'nikma va malakalar.

Birinchidan, so'z birikmasi haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lish va uning tarkibidagi tobe va hokim qismni ajrata olishga oid ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etiladi.

Ikkinchidan, zid ma'noli so'zlar haqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etiladi.

Uchinchidan, shakldoshlik haqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etiladi.

To'g'ri javob. A) *Sen birovning xonasiga doimo taqillatib kir.*

Manba: Ona tili, 5-sinf uchun darslik, «Ma'naviyat» nashriyot uyi, Toshkent –2017, 22,182,173- betlar.

4-test topshirig'i

Gap bo'laklari quyidagi shartli belgilar tartibida joylashgan gapni aniqlang.

_____ - - - - - =

- A) Yormat Yo'lchi bilan yonma-yon ketayotgan edi.
- B) Polatjon bugun hammadan oldin uyg'ondi.
- C) Olma ko'chatlarini yaxshi parvarish qildik.
- D) O'quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi.

4-test topshirig'i tahlili

To'g'ri javobni topish.

Testning to'g'ri javobini topish uchun talab etiladigan bilim, ko'nikma va malakalar.

Birinchidan, gap bo'laklari haqida nazariy ma'lumotlarni bilish va ularni ajrata olishga oid ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etiladi.

Ikkinchidan, tahlil qilish jaroyinida gap bo'laklari qanday shartli belgilar asosida ko'rsatilishini bilish talab etiladi.

To'g'ri javob. A) *Yormat Yo'lchi bilan yonma-yon ketayotgan edi.*

Manba: Ona tili, 8-sinf uchun darslik, «Cho'lpon» nashriyoti, Toshkent –2017, 55, 81- betlar.

9-test topshirig'i

"...uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. ...ning harakati yengil va lafzi tez edi. ... ko'zi o'ynab, har sekuntda o'n yoqqa alanglar edi. ... bolalik chog'idayoq uy ichi va qo'ni-qo'shni unga «shaddod» deb ism berganlar, chunki kim bo'lsa-bo'lsin, aytganini qildirmay qo'ymas, agar birorta ish uning tilagiga teskari ketsa, shovqin-suronni ... boshig'a kiyib olar edi. Shuning uchun ...ning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapga og'iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi".

Mazkur parchada "O'tkan kunlar" romanidagi qaysi qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Saodat B) Zaynab C) Kumush D) Xushro'y

9-test topshirig'i tahlili

To'g'ri javobni topish.

Testning to'g'ri javobini topish uchun talab etiladigan bilim, ko'nikma va malakalar.

"O'tkan kunlar" romanini to'liq o'qib chiqish, mazmun-mohiyatini anglash, qahramonlarning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini mushohada qilish talab etiladi.

To'g'ri javob. D) *Xushro'y*

Manba: Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani.

Test topshiriqlari javoblari

№	Javob
1	A
2	A
3	A
4	A
5	A

№	Javob
6	A
7	A
8	A
9	D
10	A